

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA STRATEGIK MENEJMENT FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Norqobilova Feruza Abduhamidovna

*Qarshi muhandislik iqtisodiyot- instituti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD).*

feruzanorqobilova9111@gmail.com

Xayitov Asilbek Fazliddin o'g'li

*Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti Menejment (tarmoqlar va
sohalar bo'yicha) yo'nalishi magistranti.*

asilbek.khaitov@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kichik biznes va uning subyektlari haqida hamda strategik menejment haqida ma'lumotlar berilgan. Undan tashqari kichik biznes subyektlarida strategik menejmentni faoliyatini tashkil etish va uni iqtisodiy o'sishda uni hissasini qo'shish va rivojlantirish. Strategik menejment to'g'risida ma'lumotlar kamligini va ular ustida ko'proq ishlash kerakligi takidlab o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Biznes, kichik biznes, kapital, bank, strategiya, marketing, raqamli iqtisodiyot, tadbirkorlik.*

Аннотация: *В данной статье представлены сведения о малом бизнесе и его субъектах, а также сведения о стратегическом управлении. Кроме того, организация деятельности по управлению в сфере малого предпринимательства и ее вклад в экономический рост и развитие.*

Ключевые слова: *Бизнес, малый бизнес, капитал, банк, стратегия, маркетинг, цифровая экономика, предпринимательство.*

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi iqtisodiy faoliyat jarayonlari va uning natijalarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarda kichik biznes ulushining yuqori bo'lishiga ham bog'liq ekanligi shubhasizdir.

Kam xarajat hisobiga yangi ish o‘rinlari yaratish imkoniyati, yirik biznes kirib bora olmaydigan bozor segmentlarini egallay olish qobiliyati, ayniqsa, xizmat ko‘rsatish sohasida va uncha katta bo‘lmagan mahalliy resurs bazalarini o‘zlashtirishda juda qulay tashkiliy shakl ekanligi kichik biznesni rivojlantirishning ahamiyati beqiyosligini ko‘rsatadi. Shu sababli ham kichik biznesni jadal rivojlantirish masalasi mahsulot ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish va shuningdek, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish masalalari bilan chambarchas bog‘langan.

Mamlakatimizda tadbirkorlarga sharoit va juda katta imkoniyat, muhitini yaxshilash hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivoji uchun yanada qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan ma‘ruzasida “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida o‘tgan yili, fermer va dehqon xo‘jaliklarini hisobga olmaganda, 20 mingdan ziyod yangi kichik biznes sub‘ektlari tashkil etildi, ularning umumiy soni esa 195 mingdan ziyodni tashkil etdi. Bu 2000 yilga nisbatan 2 barobar ko‘pdir.

2014-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida 480 mingdan ortiq yangi ish o‘rni tashkil etildi. Bu yaratilgan jami ish o‘rinlarining yarmi demakdir. Bugungi kunda iqtisodiyotning ushbu sohasida ish bilan band bo‘lgan aholining 76,5 foizdan ziyodi mehnat qilmoqda. 2000 yilda bu ko‘rsatkich 49,7 foizga teng edi. Iqtisodiyot sohasida izchil amalga oshirayotgan ana shunday chora-tadbirlarimiz o‘zining yuksak samarasini bermoqda” deb ta‘kidlab o‘tdi[1].

Darhaqiqat, “kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashning ishonchli tayanchi bo‘lgan mulkdorlar sinfini, ya’ni o‘rta sinfni shakllantirishdagi ulkan ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo‘lmaydi”[2].

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning poydevori amaldagi bozor iqtisodiyotining tayanch nuqtalaridan biri bo‘lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlantirilishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Chunki iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar jarayoni ishlab chiqarish tarkibining ma’lum darajadagi nisbatini keltirib chiqaradi va iqtisodiyot sub’ektlarida ixcham iqtisodiy faoliyat turini tanlashga, bozordagi o‘zgarishlarga javoban tezlik bilan o‘z faoliyatini tashkil etishga moyillikni shakllantirib boradi.

Yuqoridagi fikrlarmizdan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, kichik biznes tushunchasi talqini barchamizni qiziqtirishi tabiiy hol. Chet mamlakatlar qonunchiligi va ilmiy adabiyotlarda iqtisodiyotning ushbu sektori asosan “mayda ishlab chiqarish”, “kichik tadbirkorlik” va “kichik biznes” kabi atamalar bilan talqin etiladi.

Mohiyatan olib qaraganda, dunyoning barcha mamlakatlarida, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasida uning tashkil etilish maqsadlari va faoliyat ko‘rsatish asoslari deyarli bir xil mazmun va ahamiyat kasb etadi. Biroq turli mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi va o‘ziga xos shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda ulardagi kichik biznes sub’ektlarini aniqlashda turlicha yondashiladi. Bunda asosan kichik biznes faoliyatini baholash ko‘rsatkichlari yoki mezonlaridan foydalaniladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2001 yil 15 mayda qabul qilingan “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun 3-moddasida «tadbirkorlik faoliyati» tushunchasiga quyidagicha ta’rif beriladi: “Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati sub’ektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat”.

Kichik biznesning o‘ziga xos xususiyatlar mavjud bo‘lib, ularga bozordagi talabga tez moslasha borishi, sifatli mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati; nisbatan qisqa muddatlarda aholi ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan tovar va xizmatlarga bo‘lgan talabni qondira olishi; dastlabki sarmoya hajmining nisbatan kamligi; tez orada yangi ishchi o‘rinlari barpo etish va bandlik muammosini hal

etishga ko'maklashish imkoniyati; biznes egasining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdagi bevosita ishtiroki va boshqalarni kiritish mumkin[4].

Iqtisodchi olimlar tomonidan e'lon qilingan "Inson taraqqiyoti to'g'risidagi ma'ruza"da kichik biznesning iqtisodiy jihatlari hamda manfaatli xususiyatlari quyidagicha yoritiladi:

kichik biznes – aholining talay qismi uchun mehnatini qo'llaydigan jabha va daromad manbai, yetarli malaka va tajriba bo'lmagan, egiluvchan jadvalli ish kunini istagan aksariyat mehnat resurslarini mashg'ul etuvchi mehnat bozorining eng moslashuvchan qismi. Ayollar, ilk bor ish qidirayotgan yoshlar, ma'lumoti va mehnat tajribasi yuqori darajada bo'lmagan shaxslar ko'pincha faqat shu yerdan ish topishlari mumkin. Bu jabhada mashg'ul kishilarning aksariyat qismi uchungina emas, balki ularning oila a'zolari uchun ham asosiy daromad manbai bo'lishi kichik biznes milliy farovonlikning o'sishi uchun muhim omilga aylanganidan dalolat beradi;

kichik tadbirkorlik aholi orasida ish yuritish va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, uning bozor munosabatlariga moslashganlik darajasini oshirishda potentsial samarali vositadir. U fuqarolarga nafaqat o'z ishchi kuchi, balki o'z mulki, jumladan, ishlab chiqarishga mo'ljallangan mulk egasi bo'lishiga imkon yaratib, o'rta sinf-jamiyatning progressiv taraqqiyotini ta'minlashga qodir, demokratiya va ijtimoiy barqarorlikdan manfaatdor ijtimoiy qatlamning shakllanishi uchun asos yaratadi;

kichik biznes butun iqtisodiyotning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. U iste'mol talabining o'zgarishlariga hammadan tez moslashadi, iqtisodiy vaziyatning tebranishlariga muvofiq tarzda o'z faoliyati ixtisosini tez va nisbatan asoratsiz o'zgartira oladi;

kichik biznes iqtisodiyotning hududiy tuzilmasini yaxshilaydi.

Ma'lumki, iqtisodiyot sub'ektlari sifatida davlat sektori va xususiy sektor faoliyat ko'rsatadi. Kichik biznes xususiy sektorning ma'lum bir qismi bo'lib, uning faoliyati xususiy yoki mulkiy ulush orqali amal qiladi.

Kichik biznesda iqtisodiy hamkorlik imkoniyatlar darajasida amalga oshiriladi va iqtisodiy holat mustahkamlanib boriladi. Kichik biznes mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy qismi sifatida uning iqtisodiy asosini tashkil etadi va umumiy iqtisodiy jihatdan muhim rol o'ynaydi. Hozirgi davrda kichik biznes jamiyatda ishlab chiqarish qanchalik keng tarqalgan va mustahkam bo'lsa, mamlakat iqtisodiyoti shunchalik barqaror rivojlangan bo'ladi va u iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Kichik tadbirkorlikni kichik biznesning muhim bo'g'ini deb qarash mumkin. Iqtisodiyotning xaddan ziyod mafkuralashuvi kichik biznesning iqtisodiy ahamiyatini pasayishiga olib keladi. Kichik biznes sub'ektlari mamlakat iqtisodiyotida mustahkam mavqega ega ega bo'lib borayotganliklari, ularning ta'siri kuchayayotganligi alohida qatlam sifatida ahamiyat kasb etishini belgilaydi. Shuning uchun ularning ichki tarkibi ham turli shakllar va maqomlari bilan izohlanadi. Hozirgi kunda kichik biznes sub'ektlari maqomini belgilashda ishlovchilar sonidan kelib chiqqan holda yondashilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlari»ga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi» gazetasi, 2015 yil 17 yanvar.
2. I.A. Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. -T.: O'zbekiston, 2011. 39 bet.
3. Suyunovich, Mukhitdinov Khudoyar, and Norqobilova Feruza Abdihamidovna. "Prospects Of Digitalization Of Craftsmanship Development In The Region." Journal of Pharmaceutical Negative Results (2022): 345-352.
4. Norqobilova.F.A. "XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARINI MODELLASHTIRISHDA TIZIMLI TAHLIL QILISH, SINTEZLASH VA OPTIMALLASHTIRISH." International journal of conference series on education and social sciences (Online). Vol. 1. No. 2. 2021.

5. Abdihamidovna, Norqobilova Feruza. “Financial Services to the Residents of the Region in the Field of Crafts.” International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology 1 (2021): 225-230.
6. Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti talabasi Tangriyev Abdurahmon, “Raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes jarayonlarining boshqarishning marketing strategiyasi”.